



## Expression of toponimic words in Uzbek dictionaries

Nodirakhon ISMATOVA<sup>1</sup>

Kokand State Pedagogical Institute

### ARTICLE INFO

#### **Article history:**

Received April 2024

Received in revised form

15 May 2024

Accepted 25 May 2024

Available online

15 June 2024

#### **Keywords:**

Toponymy,  
geographical names,  
lexicography,  
linguistic analysis,  
geographical terms.

### ABSTRACT

This article examines the representation of toponymic words in dictionaries of the Uzbek language. Toponymy is a science that studies the names of geographical places and their origin; the reflection of this area in the dictionaries of the Uzbek language is analyzed. The article talks about the long-term preservation and stability of toponymic words in the language, as well as their expression in dictionaries. The works of scientists who played an important role in the development of Uzbek lexicography and the scientific study of toponymic words are analyzed. The history and linguistic features of toponymic dictionaries are also considered.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss5/S-pp144-148>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Toponimik soʻzlarning oʻzbek tili lugʻatlarida ifodalanishi

### ANNOTATSIYA

#### **Kalit soʻzlar:**

toponimika,  
geografik nomlar,  
lugʻatshunoslik,  
lingvistik tahlil,  
geografik atamalar..

Ushbu maqolada oʻzbek tili lugʻatlarida toponimik soʻzlarning ifodalanishi oʻrganiladi. Toponimika geografik joy nomlarini va ularning kelib chiqishini oʻrganadigan fan boʻlib, bu sohaning oʻzbek tili lugʻatlaridagi aks etishi tahlil qilinadi. Maqolada toponimik soʻzlarning tildagi uzoq saqlanishi va barqarorligi, shuningdek, ularning lugʻatlardagi ifodalanishi haqida soʻz yuritiladi. Oʻzbek lugʻatchiligining rivojlanishida va toponimik soʻzlarning ilmiy oʻrganilishida muhim ahamiyatga ega boʻlgan olimlarning ishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, toponimik lugʻatlarning tarixi va lingvistik xususiyatlari koʻrib chiqiladi.

<sup>1</sup> Teacher, Kokand State Pedagogical Institute

# Выражение топонимических слов в словарях узбекского языка

## АННОТАЦИЯ

### Ключевые слова:

топонимия,  
географические названия,  
лексикография,  
лингвистический анализ,  
географические термины.

В данной статье рассматривается репрезентация топонимических слов в словарях узбекского языка. Топонимика – наука, изучающая названия географических мест и их происхождение, анализируется отражение этой области в словарях узбекского языка. В статье говорится о длительном сохранении и устойчивости топонимических слов в языке, а также об их выражении в словарях. Анализируются работы ученых, сыгравшие важную роль в развитии узбекской лексикографии и научном изучении топонимических слов. Также рассмотрены история и лингвистические особенности топонимических словарей.

## KIRISH

Toponimika joy nomlarini va ularning kelib chiqishini o'rganadigan fan bo'lib, yurtimizda hamda boshqa barcha davlatlarda ham bu soha jadal rivojlanib bormoqda. U har bir millat tili, adabiyoti, geografiyasi uchun juda muhim hisoblanib, millatning madaniyatini ham o'zida jamlaydi. Dunyo tilshunosligida toponimlar til lug'at tarkiblarini hosil qiluvchi muhim vositalardan biri sanaladi. Ayni paytda geografik nomlarining tilning boshqa leksik qatlamlaridan anchagina farq qilishi, ularning tilda uzoq yashashi sabab va yo'llarini ko'rsatib berish, ko'p komponentli birlik sifatidagi lingvistik o'ziga xosliklari, toponimlarning har bir tilning o'z ichki qonuniyatlari asosida maydonga kelish yo'llarini asoslash, ham ilmiy-nazariy, ham amaliy jihatdan tadqiq etilishi har qanday tilning rivoji va taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi alohida qayd qilinmoqda. Toponimik so'zlar lug'atlarda uzoq saqlanib qolishi va stabilligi bilan ham yoki juda kam o'zgaruvchanligi bilan ham xarakterlidir. Shu sabablar bilan ham toponimik so'zlarning tadqiqi va ularning o'zbek tili lug'atlarida berilishi tadqiqotimizning asosiy obyektlaridan hisoblanadi.

## MATERIALLAR VA METODLAR

O'zbek tilshunosligida joy nomlarining ilmiy va hududiy jihatdan o'rganish o'tgan asrning 60-yillaridan keyin boshlangan bo'lib, bu soha rivojiga H.Hasanov, T.Nafasov, S.Qorayev, shuningdek, Z.Do'simov, T.Rahmatov, L.Karimova, Sh.Qodirova, J.Latipov, N.Oxunov, T.Enazarov, N.Uluqov, A.Turobov, S.Nayimov, X.Xolmo'minov, A.Otajonova, O.Begimov, A.Aslonov, O'Oripov kabilar bu borada olib borgan ishlari bilan ulkan hissa qo'shganlar.

Lug'atshunoslik sohasi ham boshqa bir rivojlanib borayotgan sohalardan biri hisoblanib, bu har bir tilning eng asosi, negizi hisoblanadi. Tilning boyligi uning lug'at boyligi bilan o'lchanadi desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbek lug'atchiligi shakllanishining ilk bosqichlari XI asrda buyuk bobokalonimiz Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" asari bilan boshlanadi. Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'ati-t-turk" asarini yaratib o'zbek lug'atchiligining shakllanishiga ilk tamal toshini qo'ygan deya olamiz. Undan so'ng ko'plab olimlar, mutafakkirlar, adabiyotchilar, tilshunoslar va geograf olimlar birgalikda izlanib toponimik so'zlar va ularning lug'atlarda berilishi ustida ishladilar. Bu borada bir necha bora muvaffaqiyatga qozonildi.

Aytib o'tilganidek, O'zbek lug'atchiligining rivojlanishida yigirmanchi asr alohida o'rin tutadi. Bu davrda turli maqsadlarni ko'zda tutgan ko'plab terminologik lug'atlar, o'quv va imlo lug'atlari, ikki va uch tilli so'zlashgichlar yaratildi. Bunda ayniqsa, ruscha-o'zbekcha va o'zbekcha-ruscha, shuningdek o'zbek tilini boshqa Yevropa va xorijiy sharq tillari bilan qiyoslab o'rganishga mo'ljallangan lug'atlar alohida o'rin tutadi. Bundan tashqari toponimik lug'atlar ustida ham turli ishlar olib borildi.

### **IZLANISHLAR VA MUHOKAMALAR**

Har bir geografik nom - so'z sifatida o'ziga xos ma'no va vazifaga ega. Respublikamizning turli hududlarida Qo'rg'on, Qo'rg'onak nomli qishloq va ovullar, mahalla va guzarlar bor bo'lib, Kattaqo'rg'on, (Uchqo'rg'on, Qoraqo'rg'on, Toshqo'rg'on, Qo'rg'ontosh kabi qishloqlar soni ham anchagina. Bu nomlar ma'lum hududdagi aholi maskanlarining maxsus atqli otlari hisoblanadi. Ularning har biri yaralgan davri, o'rni, aholisining tarkibi, geografik shart-sharoiti, tabiiy muhiti, ishlab chiqarishi, sug'orish manbalari kabi qator belgilari bilan bir-biridan farqlanadi. Nomlarning joylashish tartibi - birlamchi ahamiyat kasb etadi va ular tildagi oddiy qo'rg'on, uch, katta, qora, tosh so'zlaridan tubdan farq qiladi. Keltirilgan nomlarning barchasi shu hududda tarixning ma'lum bir davrida (atrofi devor bilan o'ralgan inshoot, hovli-joy) qo'rg'onning nomi bo'lgan, so'ngra shu maskan atrofidagi qishloq, ovul, mahalla, tuman nomiga aylangan. Qo'rg'onlarni bir-biridan farqlash uchun katta, uch, tosh, qora kabi so'zlar qo'shib, so'ngra yangi nomlar hosil qilingan. Har bir qo'rg'on va aholi turar joyining yaratuvchisi va nomlovchisi - oddiy xalq. Qo'rg'on va aholi maskani qachon yaratilgan, nima uchun, kim tomonidan, qayerda, qanday zaruriyat tufayli vujudga kelganligi kabi masalalar tarix fanining va shu jumladan, o'lkashunoslarning asosiy vazifasidir.

Aholi yashash joy nomlari nomida balx, balq, baliq; -duvon,-tuvon; -mitan, metan; qo'rg'on, qal'a, chaqar, rabot, saroy; -chetn, -tim, -chim; -kat, -kent, -qand kabi so'zlar ham uchraydi. Bu so'zlar shu shaklda qishloq, ovul, shahar nomiga aylangan: Balx, Metan, Qo'rg'on, Chaqar, Qal'a, Rabot, Saroy, Chem, Kat. Keyinchalik shu joyning belgilarini bildiruvchi turli so'zlar qo'shib yangi nomlar hosil qilingan: Qorabaliq, Oqbaliq, G'ijduvon, Parmetan, Shamaton, Namaton, Kattaqo'rg'on, Yangiqo'rg'on, Qo'rg'oncha, Toshqal'a, Oqrabot, Oqsaroy, Chimqo'rg'on, Navkat, Novqat, Toshkent. Shahar nomlari tilda dastlab qishloq nomi sifatida yuzaga kelgan. Qishloq nomlari esa, dastlab qo'rg'on nomi tarzida vujudga kelgan. Bu nomlar - xalqimizning shaharsozlik madaniyatini qabul qilishi natijasi va tildagi ifodasidir. Qisqaroq aytganda, toponimlar xalq ijodi va ma'naviyatining bir yo ikki so'zda yozilgan tarixi, eng qisqa tarixiy manbalardir.

Toponimik lug'atlar geografik nomlarning oson o'rganilishi va nomlarning lingvistik xususiyatlarini o'z ichiga olgan holda muhimdir. Toponimik lug'atlar ham xuddi izohli lug'atlar kabi har bir nomga alohida izoh beriladi. Ular alifbo tartibida berilib, har bir joy nomining qaysidir viloyatda, qaysidir tumanda ikkinchi shakli ham mavjud bo'lsa, alohida ta'kidlab o'tiladi. Bundan tashqari toponimik lug'atlar tarix fani bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har bir joy nomiga izoh keltirilgan paytda bu joy nomining kelib chiqishi va keyinchalik sodir bo'lgan o'zgarishlar ham aytib o'tilishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, quyidagi holatda joy nomlari izohli lug'at shaklida berilgan:

SAYROB Boysun t. qishloq. Ikki suv o'zani orasidagi toshloq (sayram) joyda bunyod bo'lgan qishloq. q. Sayram.

QIRQQIZ To'rtko'1 t. ovul. Termiz sh. xaroba, tog'li t. tog'. Qo'rg'on burjlari, saroy vayronasidan paydo bo'lgan kichik minorasimon ko'p balandlikdan iborat xaroba yonidagi

ovul; qoyasimon balandliklari ko'p bo'lgan kichik tog'. i) qadimiy nomlarga ba'zan ikki xil izoh tavsiya qilindi, nom asosidagi so'z (va qo'shimcha)ning avvalgi va hozirgi ma'nolari inobatga olindi.

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytishni joiz deb bildikki, toponimika va lug'atshunoslik sohalari doimiy rivojlanib o'zgarib boruvchi sohalardir. Chunki ular millat tili bilan birgalikda o'zgarib boradi. Shu boisdan ham toponimik lug'atlarning eskiroq shakllari hozirgi davrga to'g'ri kelmaydi. Sababini esa yuqorida ham ta'kidlab o'tdik. Toponimik lug'atlarni izohli lug'atlar sirasiga kiritsak, har bir joy nomiga alohida izoh kerakligini ko'rishimiz mumkin. Joy nomlari va tilda ifodalangan so'zlarning o'zari progressivlashuvi va xalq tilining rivojlanishi sabab lug'atlar ham juda tez o'zgarishi ehtimol. Garchi joy nomlarining saqlanib qolishi uzoq muddatli bo'lsa-da, bu jarayon biroz o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXAT:**

1. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 80.
2. Нафасов Т. Топонимы Кашкадарьинской области: Автореферат дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1968. – С. 24.
3. Қораев С. Торонимика. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2006. – В. 320.
4. O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati (T.Nafasov, V.Nafasova).pdf (ziyouz.com)
5. Исмадова, Н. М. (2017). Побудительные предложения в английском и в узбекском языках. Молодой ученый, (22), 472-473.
6. Makhmudovna, I. N. (2022). TOPONYMS CONSTRUCTED BY COMPOUND NOUNS WITH THE COLOR COMPONENT. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.6 Philological sciences).
7. Ismatova, N. M. (2022). TOPONYMS EXPRESSED IN ENGLISH WITH A COMPOUND NOUN WITH A COLOR COMPONENT. In Современные проблемы филологии и методики преподавания языков: вопросы теории и практики (pp. 101-104).
8. Makhmudovna, I. N. (2022). LINGUISTIC FEATURES OF TOPONYMS REPRESENTED BY COMPOUND NOUNS IN DIFFERENT SYSTEMATIC LANGUAGES. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(09), 387-390.
9. Makhmudovna, I. N. (2022). General legislation of toponymics and the concept of toponymy. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(5), 704-706.
10. Ahmad, A. A. (2021). The Interpretation of Agricultural Words in " Baburnama". JournalNX, 7(12), 116-118.
11. Amini, A. (2023). SHIMOLIY AFG'ONISTON O 'ZBEKLARI NUTQIDAGI DEHQONCHILIKKA OID HARAKAT FELLARINI IFODALOVCHI BIRLIKLAR. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 4(1), 9-15.
12. Amini, A. (2023). DEHQONCHILIKKA OID MAQOLLARNING SEMANTIKA TADQIQI. Молодые ученые, 2(11), 123-128.

13. Ahmad, A. A. (2022). SHIMOLIY AFGONISTON OZBEKLARI NUTQIDA DEHQONCHILIK ASBOBLARI NOMLARI VA ULARNING LISONIY TALQINI. *Science and innovation*, 1(B2), 485-490.
14. Xo'jayeva, S. (2023). ALISHER NAVOIYNING "NAZM UL-JAVOHIR" ASARIDA QOFIYA SATHI VA ASAR POETIKASI O 'RTASIDAGI BOG 'LIQLIK. *Farg'ona davlat universiteti*, (3), 94-94.
15. Shoirakhon, K. (2023). THE METRIC CHARACTERISTICS OF ALISHER NAVOI'S WORK «NAZM UL-JAVOHIR». *Gospodarka i Innowacje*, 42, 475-480.
16. Zohidova, D., & Xo'jayeva, S. (2024, February). "NAZM UL-JAVOHIR" RUBOIYLARINING QOFIYA XUSUSIYATLARI. In *Konferensiyalar| Conferences* (Vol. 1, No. 5, pp. 96-102).
17. Shoirakhon, K. (2023). The Use of Rhyming Arts in Alisher Navoi's Work Nazm Ul Javohir. *Journal of Advanced Zoology*, 44.
18. Shoirakhon, K. (2023). The Artistry of Alisher Navoi's work "Nazm Ul-Javohir". *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 403-408.
19. Yusupovna, K. B. (2023). Artistic Interpretation Of The Image Of Amir Temur In The Work Of Askad Mukhtar. *Journal of Positive School Psychology*, 896-900.
20. Rakhmanova, N. (2023). LANGUAGE AND CULTURE: INVESTIGATE THE CONNECTION AMONG LANGUAGE AND CULTURE, ANALYZING HOW LANGUAGE REFLECTS AND SHAPES SOCIAL STANDARDS, VALUES, AND PERSONALITIES. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(31).
21. Bakhodirovna, R. N. (2024). About Some Features of Authentic Text Materials in Teaching a Foreign Language. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 5(1), 45-49.
22. Isakova, Z. Z., & Rakhmonova, N. B. (2021). The expressing value attitude with the help of paralinguistic methods. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 1209-1213.
23. Usmonov, S., Boltaboeva, U., Rahmonova, N., & Akbarov, T. (2021). Pedagogical Approaches To Educating Future Actors. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 3(05), 85-90.
24. Boltaboeva, U., Sh, U., & Rahmonova, N. (2019). Creative person-the role of live word in educating an actor. *European Journal of Arts*, (3), 63-65.
25. Mamajanovna, I. G. (2023). Preparing for The Final Interview in Russian in High School: Tips for Teachers, Students and Parents. *Journal of Advanced Zoology*, 44(5).